

## MEN KIMMAN?



### O'qituvchi yordamida o'rganing

Kechagina erkatoy bolajon edingiz. Endi o'quvchisiz, demak, katta bo'ldingiz. Maktabga kelib, yangi do'stlar ortirasiz va ular bilan ko'p yillar birga o'qiysiz.

### Keling, tanishib olamiz.

Assalomu alaykum. Mening ismim – Akmal. 7 yoshdaman. Men konstruktor o'yinchoqlarni yig'ishni va futbol o'ynashni yaxshi ko'raman hamda bobomga bog'da yordam beraman.



Assalomu alaykum. Mening ismim – Madina. Akmalning egizak singlisiman. Men onam bilan non yopishni va kitob o'qishni yoqtiraman.



### Savollarga javob bering

1. Nima uchun odamlar o'zlarini tanishtirishlari kerak?
2. Akmal va Madina haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Sizga qanday mashg'ulotlar yoqadi?

## Mening tashrif qog'ozim



Ismingiz

Yoshingiz

Nimalarni yoqtirasiz?





### Og'zaki topshiriq

Oilada kimga, qanday yordam berishingizni aytib bering.



### Ijodiy topshiriq

Bo'sh vaqtingizda nimalar qilasiz? Rasm orqali tasvirlang.

